“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

Mahalliy budjetni tartibga solish mexanizmlarining o‘ziga xos jihatlari

Boburjon Mamadaliyev,
Toshkent davlat yuridik universiteti Ma’muriy va moliya huquqi sho‘basi o‘qituvchisi
e-mail: boburmamadaliyev100@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada mahalliy budjetni tartibga solish jarayonida mahalliy davlat hokimiyati ijro organlarining vazifalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik bazasi, xususan, 2013-yil 26-dekabrdagi Budjet kodeksi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar chuqur o‘rganilgan. Maqolada mahalliy ijro organlarining budjet jarayonidagi roli, vakolatlari, mas'uliyati hamda boshqa davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari yuridik jihatdan tahlil etilgan. Muallif tomonidan mahalliy budjetlarni shakllantirish, tasdiqlash va ijro etish bosqichlaridagihokimiyat organlariningfaoliyati, budjet nazorati mexanizmlari va budjetlararo munosabatlar tizimi batafsilpoq ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida mahalliy budjet siyosatini amalga oshirishda ijro organlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. mahalliy budjet, mahalliy davlat hokimiyati, ijro organlari, budjet jarayoni, moliyaviy tartibga solish, hokimlar vakolatlari, budjet siyosati, moliyaviy nazorat, budjetlararo munosabatlar, Budjet kodeksi

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы функции исполнительных органов местной государственной власти в процессе регулирования местного бюджета, а также их специфические особенности. В рамках исследования глубоко изучена действующая законодательная база Республики Узбекистан, в частности Бюджетный кодекс от 26 декабря 2013 года, Закон «О местной государственной власти» и иные нормативно-правовые акты. В статье с юридической точки зрения рассмотрены роль, полномочия и ответственность местных исполнительных органов в бюджетном процессе, а также их взаимодействие с другими государственными органами. Автором подробно проанализирована деятельность органов власти на стадиях формирования, утверждения и исполнения местных бюджетов, механизмы бюджетного контроля и система межбюджетных отношений. По результатам исследования разработаны практические предложения, направленные на повышение эффективности деятельности исполнительных органов при реализации политики в сфере местных бюджетов.

Ключевые слова. местный бюджет, местная государственная власть, исполнительные органы, бюджетный процесс, финансовое регулирование, полномочия хокимов, бюджетная политика, финансовый контроль, межбюджетные отношения, Бюджетный кодекс

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the functions of local executive authorities in the process of regulating local budgets, as well as their distinctive features. The study thoroughly examines the current legislative framework of the Republic of Uzbekistan, in particular the Budget Code dated December 26, 2013, the Law "On Local State Authority," and other regulatory legal acts. The article offers a legal analysis of the role, powers, and responsibilities of local executive bodies in the budgetary process, as well as their interaction with other state authorities. The author gives detailed consideration to the activities of local authorities at the stages of formation, approval, and execution of local budgets, the mechanisms of budgetary control, and the system of intergovernmental fiscal relations. As a result of the research, practical proposals aimed at increasing the effectiveness of executive authorities in implementing local budget policy have been developed.

Keywords. local budget, local state authority, executive bodies, budgetary process, financial regulation, powers of hokims, budget policy, financial control, intergovernmental fiscal relations, Budget Code

Kirish. Hududiy rivojlanishni ta'minlashda mahalliy budjetlar muhim moliyaviy asos sifatida xizmat qiladi. Mahalliy budjetlar orqali hududiy rivojlanish dasturlari amalga oshiriladi, ijtimoiy soha moliyalashtiriladi, aholi turmush darajasi yaxshilanadi va mahalliy iqtisodiyot rivoji ta'minlanadi. Shu munosabat bilan mahalliy davlat hokimiyati ijro organlarining budjet siyosatini shakllantirish va amalga oshirishdagi roli tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda mahalliy budjetlarning huquqiy asoslari tubdan takomillashtirildi. 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan Budjet kodeksi mahalliy budjetlarning shakllantirish, tasdiqlash va ijro etish tamoyillarini belgilab berdi va budjet tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonun esa mahalliy ijro organlarining vakolatlari va mas'uliyatini yanada kengaytirdi, ularning moliyaviy-iqtisodiy mustaqilligini oshirdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Mahalliy budjetlar va ularni tartibga solish masalalari O'zbekiston va xorijiy olimlarining tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Mahalliy moliya va budjet tizimi nazariyasi A. Babich, L. Pavlova, G. Polyak, I. Rodinina kabi rus olimlarining asarlarida asoslab berilgan. Ular mahalliy budjetlarning davlat moliyasidagi o'rni, ahamiyati va budjet federalizmi tamoyillarini ko'rsatib berishgan.

O'zbek tadqiqotchilari orasida E. Xojiyev, A. Li, L. Xvan, S. Yusupov mahalliy budjetlarning nazariy va amaliy masalalarini o'rganishga salmoqli hissa qo'shganlar. E. Hojiyevning "Moliya

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

huquqi” darsligida budjet tizimining umumiy nazariy asoslari berilgan[1]. A.Lining ishlari mahalliy budjetlarning daromad manbalarini kengaytirish masalalariga bag‘ishlangan.

Xorijiy tajribani o‘rganish bo‘yicha R. Bird va F. Vaillancourt (Kanada), J. Martinez-Vazquez, R. Musgrave (AQSh), T. Ter-Minassian (Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi) kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega[2]. Ular fiskal federalizm va mahalliy moliya tizimlarining turli modellarini, desentralizatsiya jarayonlarini taqqoslagan holda tahlil qilganlar.

Biroq, mahalliy davlat hokimiyati ijro organlarining Budjet kodeksida belgilangan aniq vazifalari va ularning budjet jarayonidagi o‘ziga xos jihatlari to‘liq tadqiq etilmagan. Xususan, 2013-yildan buyon qabul qilingan qonunchilik o‘zgarishlari kontekstida ijro organlarining yangi vakolatlari, mas’uliyati va amaliy faoliyatining yuridik jihatlari chuqur tahlilga muhtoj.

Tadqiqot quyidagi ilmiy usullar asosida olib borildi:

1. Qonuniy-texnik tahlil usuli – Budjet kodeksi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni, normalarining o‘zaro bog‘liqligi sistemali o‘rganildi.

2. Qiyosiy-huquqiy usul – O‘zbekiston qonunchiligining turli davrlardagi holati taqqoslandi, xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

3. Tizimli yondashuv – Budjet jarayoni yaxlit, o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat tizim sifatida ko‘rib chiqildi, ijro organlarining ushbu tizimdagi o‘rni aniqlandi.

4. Funksional tahlil – Mahalliy ijro organlarining budjet sohasidagi vazifalarini ularning amaliy amalga oshirilishi va natijadorligi nuqtai nazaridan baholash amalga oshirildi.

5. Statistik tahlil – Mahalliy budjetlar ko‘rsatkichlari dinamikasi, budjet ijrosi natijalari miqdoriy baholash asosida tahlil qilindi.

6. Hujjatlarni o‘rganish usuli – rasmiy hujjatlar, hisobotlar, budjet qonunlari va qarorlari o‘rganildi.

Muhokama

Budjet kodeksining 6-moddasiga ko‘ra, budjet tizimi barcha darajadagi budjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari, budjet tizimi budjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o‘rtasida budjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. 10-moddaga binoan, budjet tizimi budjetlarining balansliligi va o‘zaro bog‘liqligi prinsipi amalga oshiriladi.

Mahalliy budjetlar budjet tizimining muhim qismi sifatida quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti (respublika budjeti va mahalliy budjetlar);

– viloyatlar budjetlari;

– Toshkent shahar budjeti ;

– tumanlar va shaharlar budjetlari.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Mahalliy budjetlarning asosiy xususiyatlari:

1. Hududiy xarakter – ma’lum hududda yashayotgan aholining ehtiyojlarini qondirishga qaratilganligi, mahalliy ahamiyatdagi masalalarni hal etishi;

2. Nisbiy mustaqillik – Budjet kodeksi va boshqa qonunchilik doirasida mahalliy ijro organlari tomonidan mustaqil shakllantirilishi va ijro etilishi;

3. Subsidiarlik prinsipi – masalalarni eng pastki samarali darajada hal etish, aholining ehtiyojlariga yaqinroq organlar tomonidan xizmatlar ko‘rsatish;

4. Muvozanatlilik – 12-moddaga muvofiq budjet mablag‘laridan foydalanishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati prinsipi amalga oshirilishi;

5. Shaffoflik – 17-moddada belgilangan ochiqlik prinsipiga binoan budjet ma’lumotlarining jamoatchilikka ochiqligini ta’minlash.

Mahalliy budjetlar konsolidatsiyalashgan budjetning katta qismini tashkil etadi. 45-46-moddalarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti statistik maqsadlarda qo‘llanadi va budjet siyosatini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega[3].

Budjet kodeksining 28-moddasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining budjet sohasidagi vakolatlarini belgilaydi.

Hokimlarning asosiy budjet vakolatlari:

1) tegishli budjet loyihasini ishlab chiqish va vakillik organiga kiritish;

2) budjetni ijro etishni ta’minlash;

3) tegishli budjetning ijrosi to‘g‘risida hisobotlarni tayyorlash va vakillik organiga kiritish;

4) budjetlararo munosabatlarni amalga oshirish;

5) tegishli budjet mablag‘lari hisobidan moliyaviy yordam ko‘rsatish;

6) mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

7) budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish va ulardan foydalanishni tartibga solish;

8) budjet jarayonida vakolatlarni amalga oshirishda javobgarlikni ta’minlash.

Budjet kodeksining 17-moddasi ochiqlik prinsipini belgilaydi. Ushbu prinsipga ko‘ra:

1) Budjet hujjatlari va ma’lumotlari ommaviy e’lon qilinadi;

2) Budjet jarayonining barcha bosqichlari ochiq bo‘lishi kerak;

3) Fuqarolar budjet to‘g‘risida to‘liq ma’lumot olish huquqiga ega;

4) Davlat siri va boshqa qonun bilan muhofaza qilinadigan sir bo‘lgan ma’lumotlar bundan mustasno.

O‘zbekiston amaliyotida shaffoflik mexanizmlari:

1) Rasmiy veb-saytlarda budjet ma’lumotlarini joylashtirish:

– hokimliklarning rasmiy veb-saytlari;
– moliya organlarining portallari;
– “Ochiq ma’lumotlar” portali;
– “Ochiq budjet” platformasi.
2) Budjet hisobotlari va ochiq muhokamalar:
– vakillik organlarida ochiq yig‘ilishlar;
– jamoatchilik bilan uchrashuvlar;
– budjet loyihasini ommaviy muhokama qilish;
– fuqarolar takliflarini yig‘ish.
3) OAV orqali axborot tarqatish:
– budjet to‘g‘risida muntazam e'lonlar;
– budjet ijrosi natijalarini yoritish;
– televizion va radioda tushuntirish ishlari.

Natijalar

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelingan:

1. Huquqiy-normativ baza takomillashmoqda.

2013-yil 26-dekabrdagi Budjet kodeksi mahalliy budjetlar sohasidagi qonunchilik bazasini yangi bosqichga olib chiqdi. Kodeks budjet tizimining prinsiplarini, budjet jarayonining barcha bosqichlarini, vakolatlarni aniq belgilab berdi. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 2019-yilgi qonun esa hokimliklarning vakolatlarini yanada kengaytirdi.

2. Mahalliy ijro organlarining roli kengaymoqda

Budjet kodeksining 28-32-moddalari hokimliklar, moliya organlari va budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning vakolatlarini aniq belgilaydi. Hokimliklar budjet jarayonining barcha bosqichlarida – loyihalashdan to nazorat qilishgacha – markaziy rolni o‘ynaydi. Ularning mas’uliyati ham oshmoqda.

3. Budjetlararo munosabatlar tizimi kengaytirilmoqda.

Transfert mexanizmlari (dotatsiyalar, subsidiyalar, subventsiyalar) orqali hududlar o‘rtasida mablag‘larni qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Biroq, ko‘pchilik mahalliy budjetlar hali ham yuqori budjetlardan transferlarga katta bog‘liq.

4. Shaffoflik oshmoqda.

17-modda budjetning ochiqlik prinsipini belgilaydi. “Ochiq budjet” portali va boshqa raqamli platformalar orqali jamoatchilik budjet to‘g‘risida ma’lumot olish imkoniyatiga ega. Biroq shaffoflikni yanada oshirish kerak.

5. Muammolar va qiyinchiliklar mavjud.
– mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligi etarli emas;
– o‘z daromad manbalari cheklangan;
– xarajatlar samaradorligi har doim ham yuqori emas;
– kadrlarning malakasi yetarli darajada emas;
– raqamlashtirish potentsiali to‘liq ishlatilmagan.

Xulosa

Mahalliy davlat hokimiyati ijro organlarining mahalliy budjetni tartibga solishdagi vazifalari ko‘p qirrali, murakkab va mas’uliyatlidir. Budjet kodeksi ushbu vazifalarni aniq belgilab, ijro organlarining budjet jarayonining barcha bosqichlarida loyihalash,

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tasdiqlash, ijro etish va nazorat qilishda muhim rolini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida mahalliy budjetlar tizimi tobora takomillashib bormoqda. 2013-yilgi Budjet kodeksi budjet munosabatlarini tartibga solishda muhim yuridik asos yaratdi. Hokimliklarning vakolatlari kengaymoqda, moliyaviy mustaqillik darajasi oshmoqda, budjet shaffofligi va javobgarlik mexanizmlari mustahkamlanmoqda.

Mahalliy budjetlar hududiy rivojlanishning asosiy moliyaviy vositasi hisoblanadi. Ular orqali ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, kommunal xo‘jalik va boshqa sohalarga mablag‘lar ajratiladi. Shu sababli, mahalliy ijro organlarining budjet siyosatini to‘g‘ri shakllantirishi va samarali amalga oshirishi aholining hayot sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Biroq qator muammolar hali ham mavjud. Mahalliy budjetlarning moliyaviy imkoniyatlari ko‘plab hududlarda cheklangan. Transfer mexanizmlari takomillashtirilmoqda, ammo ko‘pchilik mahalliy budjetlar yuqori budjetlardan transferlarga sezilarli darajada bog‘liq. O‘z daromad manbalarini kengaytirish imkoniyatlari cheklangan.

Xarajatlar samaradorligi ham har doim yuqori emas. Budjet mablag‘laridan foydalanishda hali ham samarasizlik, maqsadsiz sarflash holatlari uchraydi. Budjet rejalashtirishning ilmiy asoslari yetarli darajada qo‘llanilmaydi. Iqtisodiy baholash va samaradorlikni o‘lchash tizimi zaif.

Kadrlar malakasi ham muhim muammo hisoblanadi. Hokimlik moliya bo‘limlari xodimlarining professional tayyorgarligi, zamonaviy budjet texnologiyalarini egallashi budjet jarayonining sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Kelajakda mahalliy budjetlar tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

– mahalliy daromad manbalarini kengaytirish va ularning barqarorligini ta’minlash. Buning uchun mahalliy soliqlar tizimini takomillashtirish, soliq bazasini kengaytirish, davlat mulkidan samarali foydalanish mexanizmlarini yaratish kerak;

– budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish. Xarajatlarni ilmiy asoslangan holda rejalashtirish, natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish prinsiplarini qo‘llash, xarajatlar samaradorligini baholash tizimini joriy etish zarur;

– raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. “Elektron budjet” tizimi, sun’iy intellekt, big data texnologiyalari budjet jarayonini soddalashtiradi, shaffoflikni oshiradi va xatolarni kamaytiradi;

– jamoatchilik nazorati va shaffoflikni yanada kuchaytirish. Fuqarolar budjet jarayonida faol ishtirok etishi, o‘z fikr va takliflarini bildirishi, budjet ijrosini nazorat qilishi muhim.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy budjetni tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati ijro organlarining samarali faoliyati mamlakatimizning hududiy rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sish uchun muhim ahamiyatga ega. Budjet kodeksi

yaratgan huquqiy bazani amalda to‘liq qo‘llash, xorijiy ilg‘or tajribadan o‘rganish va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirish zarurati mavjud.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Moliya huquqi: Ma’ruzalar kursi / E.Hojiyev, O. Kamalov, B, Artiqov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2012. 319-b.
2. Oates, W.E. (1972). *Fiscal Federalism*. Harcourt Brace Jovanovich, New York.;
3. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi;
4. O‘zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonuni. 1993-yil 02-sentyabr. (913-XII-son)
5. Musgrave, R.A. (1959). *The Theory of Public Finance*. McGraw-Hill, New York.;
6. Babich A.M., Pavlova L.N. Gosudarstvennyye i munitsipalnyye finansy: Uchebnik. - M.: YUNITI-DANA, 2019. - 703 s.